



WEB MATERIALLARDAN FOYDALANIB CHET TILLARINI
O'RGANISHNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRISH

Guljahon Karimova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola veb-materiallardan foydalanib chet tillarini o'rganish global miqyosda dolzarb masala bo'lib, rivojlangan mamlakatlardan tortib MDH davlatlari va O'zbekistongacha ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar chet tillarini o'rganish jarayonini samarali va qulay qilish bilan birga, uni keng ommaga taqdim etish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu sababli, ushbu mavzu yozish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *veb material, chet tillar, kompyuter texnologiyasi, raqam texnologiyalar, algoritmlash konsepsiyasi*

Аннотация: *В данной статье рассматривается глобальная актуальность изучения иностранных языков с использованием веб-материалов, которая становится неотъемлемой частью образовательного процесса от развитых стран до стран СНГ и Узбекистана. Цифровые технологии делают процесс изучения иностранных языков более эффективным и удобным, а также повышают его доступность для более широкой аудитории. Поэтому написание статей на эту тему имеет большое научное и практическое значение.*

Ключевые слова: *веб-материалы, иностранные языки, компьютерные технологии, цифровые технологии, алгоритмическая концепция*

Abstract: *This article discusses the global relevance of learning foreign languages using web materials, which is becoming an integral part of the educational process from developed countries to the CIS countries and Uzbekistan. Digital technologies make the process of learning foreign languages more effective and convenient, as well as increasing its accessibility to a wider audience. Therefore, writing on this topic is of great scientific and practical importance.*

Keywords: *web materials, foreign languages, computer technology, digital technologies, algorithmic concept*

Web materiallardan foydalanib chet tillarini o'rganishni rivojlantirishga yo'naltirish dolzarb masalalardan sanaladi. Mazkur paragrafda veb-materiallardan foydalanishning amaliy usullari, shakllari va vositalari bo'yicha chuqur tahlilga bag'ishlanadi. Chet tillarini o'rgatishda veb-resurslardan foydalanish jarayoni didaktik va pedagogik jihatdan qanday shakllantirilishi, qaysi usullar samaradorlikni oshirishi va qanday vositalar orqali natijalarga erishish mumkinligi haqida ilmiy yondashuvlar keltiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarining ingliz tilini veb platformalar orqali o'rganish ko'nikmasini rivojlantirish orqali, ularni tillarga o'rgatish,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ya'ni, qadamlar ketma-ketligini tuzish, tuzilgan dasturiy ta'minotni bosqichma-bosqich bajarish kabi vazifalarni amalga oshirishda muhim sanaladi. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ingliz tilini veb platformalar orqali o'rganish ko'nikmasini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini, ya'ni ingliz tilini veb platformalar orqali o'rganish ko'nikmasini rivojlantirishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirish taqozo etiladi.

Keltirilgan model umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 10-sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganishga oid bilimi va fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mazkur model tashkiliy va texnologik, amaliy, nazorat va tahlil bosqichlaridan iborat.

Tavsiya etilayotgan modelda umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarning auditoriyadan tashqaridagi o'quv faoliyatini muammoli ta'lim texnologiyalari hamda web platforma muhiti asosida tashkil etish taklif etilgan.

Bularni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilar va o'qituvchilar uchun global tarmoqda metodik ta'minot tizimini hosil qilish talab etiladi. Shu bois, tadqiqot doirasida global tarmoqning web platforma muhiti o'rganildi va unga umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarning ingliz tilini veb platformalar orqali o'rganish ko'nikmasini rivojlantirishga mo'ljallangan didaktik web platforma muhiti shakllantirildi.

Ushbu web platforma muhitiga joylashtirilgan didaktik web platforma muhiti umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarga mustaqil ravishda ingliz tilini o'rgatishga hamda o'zini-o'zi baholashga mo'ljallangan. O'zini-o'zi baholashga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslari dasturlashtirilgan ta'lim tamoyillari asosida o'rganilgan bo'lib, bunda to'rt xil darajadagi, ya'ni reproduktiv, variativ, qisman izlanishli va kreativ topshiriqlar mujassamlashgan. Har bir bo'limdagi dasturlar tizimli va izchillik tamoyillari asosida shakllantirilgan.

Mazkur platformalar umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarni turli masalalarning algoritmlarini blok-sexma ko'rinishda tasvirlashga o'rgatish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu platformalarning qulayligi shundaki, bunda turli topshiriqlarni ketma-ketlik tartibida joylashtirish uchun samarali hisoblanadi. Bu o'qituvchilar uchun mashg'ulotlarni tashkil etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur platformaning qulayligi shundaki, bunda turli toifali tayyor shablonlar asosida masalalarni to'rtta kompetentlik ko'rinishida tasvirlash mumkin. Shunday qilib, keltirilgan masalalarning funksiyalarini 10-sinf o'quvchilarga o'rgatishda tavsiya etilayotgan dastur va platformalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Demak, Veb-materiallardan foydalanishning amaliy shakllari turli didaktik modellarga asoslangan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos usullar va vositalarni talab qiladi.

Chet tillarini o'rganish jarayonida interaktiv vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quvchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Gamifikatsiya, multimedia resurslari, onlayn muloqot platformalari va AI vositalari til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Kelajakda veb-materiallar yordamida chet tillarini o'qitish yanada rivojlanib, VR/AR texnologiyalari va shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlari orqali innovatsion yondashuvlar shakllanadi.

O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni *pedagogik loyihalashning maqsadi*, umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchi qobiliyatiga mos mediamateriallarga ega bo'lgan elektron ta'lim resurslari muhiti hamda ushbu muhitda ishlash jarayonida o'qish motivatsiyasi va o'zlashtirishini aniqlanishi hisobiga ta'lim sifatini oshirish va umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchini bilimini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarning ko'nikmasini rivojlantirishda beriladigan masalalarni texnik va hayotiy jarayonlarga bog'lab berish samarali hisoblanadi. Bular asosida umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga va turli murakkab topshiriqlarni yechishga o'rgatiladi. Buning natijasida umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga oid qiziqishini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ivanova A.V. Texnologii virtualnoy i dopolnennoy realnosti: materialy IV Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii (Krasnoyarsk, 6-9 oktabrya 2020 g.). Krasnoyarsk: SFU, 2020.

2. Wojsieshowski, R., & Sellary, W. Evaluation of Learners' Attitude toward Learning in AR-based Edusational Environment. *Computers & Edusation*, 68, 2013. 570–585.

3. Azevich A.I. Immersivnye texnologii obucheniya: prostranstvo vozmojnostey // *Gorizonty i riski obrazovaniya v usloviyax sistemnyx izmeneniy i transformatsii: sbornik nauchnyx trudov XII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii*. M.: Mejdunarodnaya akademiya nauk pedagogicheskogo obrazovaniya, 2020

4. Bajenova S.A. Izmenenie soderjanie shkolnogo kursa informatiki pod vliyaniem razvitiya immersivnyx texnologiy // *Informatizatsiya obrazovaniya i metodika elektronnoy obucheniya: sifrovye texnologii v obrazovanii: materialy IV Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii* (Krasnoyarsk, 6-9 oktabrya 2020 g.). Krasnoyarsk: SFU, 2020.

